



O‘ZBEKISTONDA SOLIQQA TORTISHNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Qurbonov Rustam Radjapovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi o'qituvchisi,

Eshmirzayeva Qurbonoy Baxramovna talaba.

rqurbonov905@gmail.com

+998 93 791 71 55

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq siyosatining mazmun-mohiyati, uning tashkil topishi, shakllanish bosqichlari, soliqqa tortish tizimidagi islohotlar va o‘zgarishlar o‘rganilgan. Soliq siyosatining fiskal va tartibga soluvchi funksiyalari asosida korxonalarda soliq yukining darajasi, investitsion faollik, korxonalar rentabelligi, moliyaviy natijalari hamda to‘lov qobiliyatiga bo‘lgan ta’siri tahlil qilinadi. O‘zbekiston soliq tizimidagi oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning amaliy ahamiyati va xususiy sektor moliyaviy holatiga ta’siri muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: soliq siyosati, fiskal ta’sir, soliq yuki, moliyaviy barqarorlik, investitsiya muhiti, soliq islohotlari, investitsion jozibadorlik.

Kirish. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab samarali soliq tizimini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur yo‘nalish ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etildi.

Sobiq ittifoqning parchalanishi natijasida ierarxik jihatdan markazlashgan davlat boshqaruvi tizimidan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan yangi iqtisodiy tizimga o‘tish uchun shart-sharoitlar vujudga keldi. Shu bilan birga,



iqtisodiy jihatdan samarali va bozor munosabatlari talablariga mos keladigan milliy soliq tizimini yaratish imkoniyati paydo bo'ldi.

O'zbekistonda soliq tizimi qariyb 130 yil davomida Rossiya imperiyasi hamda keyinchalik sobiq Sovet Ittifoqi soliq tizimining tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritgan. Mazkur davrda soliq siyosatining asosiy maqsadi Rossiya imperiyasi va SSSR davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish hamda davlat g'aznasini to'ldirishga qaratilgan edi. Soliq siyosatini yuritish vakolati to'liq markaziy hokimiyat ixtiyorida bo'lib, soliqqa oid qarorlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish mexanizmlarini belgilash hududiy manfaatlardan ko'ra umumittifoq ehtiyojlariga xizmat qilgan. Shu bilan birga, soliq siyosatini ishlab chiqish hamda soliq xizmati faoliyatini tashkil etishning institutsional asoslarini shakllantirishga qodir bo'lgan malakali mahalliy kadrlar salohiyati yetarli darajada rivojlanmagan edi.

Mustaqillikning dastlabki bosqichlarida respublikaning iqtisodiy taraqqiyoti va istiqboldagi rivojlanish sur'atlari ko'p jihatdan samarali milliy soliq tizimini shakllantirish va uning faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq edi. Shu munosabat bilan, mamlakatda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos keladigan soliq siyosatini ishlab chiqish, soliqlarni boshqarishning zamonaviy usullari va mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, soliq organlarining yagona va samarali institutsional tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ldi.

Soliq siyosatini umumxalq manfaatlari va milliy taraqqiyot ustuvorliklari asosida shakllantirish davrning obyektiv talabiga aylandi. Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda demografik holatni chuqur tahlil qilgan holda, ehtimoliy iqtisodiy va ijtimoiy salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida milliy davlat manfaatlariga mos keluvchi soliq siyosatining maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish zarur edi. Shu bois, soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lmagan mustaqil O'zbekiston davlati o'z taraqqiyotining



dastlabki bosqichidayoq mamlakatning iqtisodiy barqarorligi hamda uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari ta'sir etuvchi muhim strategik masalalarni hal etish zarurati bilan yuzma-yuz keldi.

O'zbekiston Respublikasi soliq organlari tizimining bugungi kungacha bo'lgan shakllanish va rivojlanish jarayonini shartli ravishda to'rt bosqichga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Islohotlarning **birinchi bosqichi (1991–1997-yillar)** O'zbekiston Respublikasining mustaqil soliq tizimini shakllantirish davrini qamrab oladi. Mazkur bosqichda soliqlarning davlat byudjetini shakllantirishdagi fiskal ahamiyatini kuchaytirish, soliq tizimining yagona tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish, soliqqa tortish mexanizmlarini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Respublikada soliq organlarining mustaqil faoliyat yuritishiga davlat suverenitetiga erishilishidan avval asos solingan. Xususan, O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1991-yil 14-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan **“O'zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to'g'risida”gi Nizom** qabul qilinishi natijasida soliq organlarining davlat nazorati va boshqaruvining alohida institutsional tuzilmasi sifatida shakllanishi hamda mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy zamin yaratildi.

Ushbu jarayonning vujudga kelishiga qator obyektiv omillar sabab bo'ldi. Jumladan, Sovet Ittifoqi mavjudligining so'nggi yillarida ittifoq tarkibidagi boshqa respublikalarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham davlat byudjeti taqchilligi kuzatilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1991-yil boshida respublika davlat byudjeti taqchilligi qariyb 7,5 foizni tashkil etgan. Mazkur holat davlat daromadlari bazasini mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali soliq mexanizmini shakllantirish, soliqqa tortishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy



etish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining huquqiy maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolat doirasi hamda faoliyatining tashkiliy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi **“O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat soliq bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida”gi Farmoni** asosida belgilandi. Mazkur Farmonga muvofiq, soliq ma'murchiligi tizimini takomillashtirish va davlat soliq xizmatining institutsional salohiyatini mustahkamlash maqsadida Davlat soliq qo'mitasi tashkil etildi.

Davlat soliq qo'mitasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 4-martdagi **“O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi qarori** bilan belgilab berildi. Mazkur Nizomga muvofiq, Davlat soliq qo'mitasi soliq siyosatini amalga oshirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'z vaqtida hamda to'liq undirilishi ustidan nazoratni ta'minlash, shuningdek, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli organ sifatida e'tirof etildi.

Milliy soliq tizimining institutsional jihatdan shakllanishi 1994-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu jarayon mamlakat soliq ma'murchiligi tizimi rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Davlat soliq xizmati organlarining markazlashgan boshqaruv tizimiga o'tkazilishi soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish, nazorat funksiyalarining samaradorligini oshirish hamda soliq siyosatini izchil amalga oshirish imkonini yaratdi.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilish va soliq to'lovchilarni hisobga olish jarayonlarini tartibga solish maqsadida 1997-yil 1-apreldan boshlab Davlat soliq



qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamini (STIR) berish va undan foydalanish tizimi joriy etildi. Mazkur tizim soliq to‘lovchilarni yagona reyestr asosida hisobga olish, ularning soliq majburiyatlari ijrosini monitoring qilish hamda soliq ma’lumotlarini qayta ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Soliqqa tortish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tizimlashtirish, davlat tomonidan belgilangan soliq-huquqiy normalarni yagona hujjatda mujassamlashtirish hamda davlat soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarini aniq huquqiy me‘yorlar orqali tartibga solish maqsadida 1997-yil 24-aprelda O‘zbekiston Respublikasining ilk **Soliq kodeksi** qabul qilindi. Mazkur kodeksning qabul qilinishi bilan avval amaliyotda qo‘llanilgan ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar yagona tizimga keltirildi va soliqqa tortish sohasining kompleks huquqiy asoslari yaratildi.

Soliq kodeksining amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq to‘lovchilar hamda soliq organlari o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlari takomillashtirildi, ularning huquq va majburiyatlari aniq belgilab berildi. Shuningdek, mazkur hujjat soliq to‘lovchilarning soliq qonunchiligiga oid bilim va tushunchalarini kengaytirishga xizmat qilgan bo‘lsa, soliq organlari xodimlari uchun soliq ma‘murchiligini amalga oshirish hamda o‘z xizmat vazifalarini samarali bajarishda asosiy me‘yoriy-huquqiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

1997-yil iyul oyida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan institutsional islohotlar natijasida soliq va bojxona organlarining funksional vakolatlari o‘zaro ajratildi. Natijada bojxona organlari Davlat soliq qo‘mitasi tarkibidan chiqarilib, mustaqil davlat boshqaruvi organi sifatida qayta tashkil etildi hamda O‘zbekiston Respublikasining **Davlat bojxona qo‘mitasi** tuzildi. Ushbu o‘zgarishlar soliq va bojxona ma‘murchiligi tizimlarining ixtisoslashuvini ta‘minlash, ularning faoliyat samaradorligini oshirish hamda davlat moliyaviy nazoratining institutsional asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.



O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan **“Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi 474-I-son Qonuni** hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 12-yanvardagi **“O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 14-son qaroriga** muvofiq, davlat soliq xizmati organlarining huquqiy maqomi, asosiy funksiyalari, vazifalari va faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari belgilab berildi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar soliq organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, ularning vakolatlarini aniq chegaralash hamda soliq ma‘murchiligi tizimini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Sobiq sovet davrida amal qilgan markazlashgan soliq tizimidan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan yangi milliy soliq tizimiga o‘tish murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida kechdi. Ushbu davr, bir tomondan, ishlab chiqarish hajmlarining uzluksiz qisqarishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lov qobiliyati pasayishi, davlat moliyasidagi nomutanosibliklarning kuchayishi hamda aholi turmush darajasining yomonlashuvi bilan tavsiflangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bozor iqtisodiyoti institutlarini bosqichma-bosqich shakllantirish, bozorni iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirish, erkin narx mexanizmlarini joriy etish va inflyatsion jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilishi bilan xarakterlandi.

Shunday qilib, mazkur bosqichda soliq tizimini isloh qilish jarayoni mamlakat iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lib, uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari talablariga javob beradigan, fiskal barqarorlikni ta‘minlaydigan va iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradigan zamonaviy soliq tizimini shakllantirishdan iborat edi.

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish hamda rivojlantirish uchun zarur huquqiy va institutsional asoslar yaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Hukumat qarorlarida mazkur sohani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar nazarda tutilib, kichik



va xususiy biznes subyektlarini soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartiblarini joriy etish, ularga moliyaviy ko'mak berish hamda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun imtiyozli kreditlar ajratish tizimi shakllantirildi.

Shu bilan birga, respublikada soliq tizimi faoliyatini tartibga soluvchi zarur qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganiga qaramay, ularning amaliy qo'llanilishi bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bermas edi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida bank va moliya tizimi xodimlari faoliyatida ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga xos bo'lgan eskicha boshqaruv yondashuvlarining saqlanib qolganligini ko'rsatish mumkin.

Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, zarar bilan faoliyat yuritayotgan korxonalar va xo'jaliklarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish kabi masalalarga yetarli darajada e'tibor qaratilmadi. Natijada, moliya va soliq organlari faoliyatida belgilangan soliqlarni har qanday sharoitda undirishga qaratilgan bir tomonlama yondashuv ustunlik qildi. Bu esa soliq tizimining rag'batlantiruvchi funksiyasidan ko'ra, uning fiskal funksiyasi ustuvor ahamiyat kasb etishiga olib keldi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichi (1998–2008-yillar) O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish jarayonlari bilan tavsiflanadi. Mazkur davrda tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama rag'batlantirish, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, soliq siyosatini erkinlashtirish va bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Shu jihatdan, ushbu bosqichni soliq tizimini modernizatsiya qilish va uning iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish davri sifatida baholash mumkin.

Mazkur bosqichda yuridik shaxslar uchun soliqqa tortish tartibini soddalashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, ayrim



toifadagi soliq to'lovchilar uchun ixchamlashtirilgan soliq to'lash tizimi joriy etilib, soliq hisobotlarini taqdim etish tartibi hamda soliqlarni to'lash muddatlari soddalashtirildi. Bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning ma'muriy xarajatlarini qisqartirish, soliq majburiyatlarini bajarish jarayonini yengillashtirish va soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qildi.

Shuningdek, ushbu davrda ishlab chiqarish tarmoqlari va korxonalar zimmasiga tushayotgan soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan izchil soliq siyosati amalga oshirildi. Natijada, xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyorida qoladigan moliyaviy resurslar hajmi ortib, ularning investitsion faolligini rag'batlantirish, ishlab chiqarishni kengaytirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Umuman olganda, 1998–2008-yillar O'zbekiston soliq tizimini bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashtirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay soliq muhitini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning izchil amalga oshirilgan davri sifatida tavsiflanadi.

2004-yilda soliq tizimini takomillashtirishga qaratilgan navbatdagi islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar doirasida xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasiga tushayotgan soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish choralari ko'rildi. Natijada, korxonalarga to'g'ri keladigan o'rtacha soliq yuklamasi 2003-yilning birinchi yarmidagi 28,4 foizdan 2004-yilda 27,8 foizgacha pasaydi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2005-yil 1-iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi yanada takomillashtirildi. Xususan, ilgari alohida tartibda to'lanib kelingan to'rtta turdagi majburiy to'lov, jumladan, yagona soliq hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga ajratmalar o'rniga **yagona soliq to'lovi** joriy



etildi. Mazkur mexanizmning amaliyotga tatbiq etilishi kichik biznes subyektlari zimmasidagi soliq yukini sezilarli darajada kamaytirish, hisob-kitoblarni soddalashtirish hamda ularning xo‘jalik faoliyatini rivojlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishga xizmat qildi.

Soliqqa tortish amaliyoti bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy soliq tizimida fiskal funksiyani amalga oshirish bilan bir qatorda, soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solish va rag‘batlantirish funksiyalariga ham alohida e‘tibor qaratilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, soliq siyosati nafaqat davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish vositasi, balki investitsion faollikni oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yondashuvlar asosida soliq qonunchiligini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda **“O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 136-son Qonuni** qabul qilindi. Ushbu qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi tasdiqlandi hamda 2008-yil 1-yanvardan e‘tiboran amaliyotga joriy etildi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining kuchga kirishi soliqqa oid huquqiy munosabatlarni yanada tizimlashtirish, soliq ma‘murchiligini takomillashtirish hamda soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilashga xizmat qildi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliq tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Hukumat qarorlari soliq siyosatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy sohani rag‘batlantirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish hamda soliq ma‘murchiligi samaradorligini oshirishga yo‘naltirildi. Mazkur davrda olib borilgan soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik



subyektlari uchun qulay soliq muhitini shakllantirish orqali ularning investitsion va ishlab chiqarish faolligini rag'batlantirishdan iborat bo'ldi.

Shu maqsadda, respublika soliq siyosatida soliq yukini izchil ravishda pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi hamda ushbu ko'rsatkichning yildan-yilga kamayib borish tendensiyasi kuzatildi. Soliq yukining optimallashtirilishi xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyorida qoladigan moliyaviy resurslar hajmining ortishiga, investitsion jarayonlarning faollashishiga hamda ishlab chiqarish salohiyatining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Natijada, mamlakatda yalpi ichki mahsulotning barqaror real o'sishini ta'minlashga erishildi. Shu bilan birga, soliq tushumlari tarkibi va hajmida ham muayyan ijobiy o'zgarishlar kuzatilib, davlat byudjeti daromad bazasining mustahkamlanishi uchun zamin yaratildi. Bu esa soliq siyosatining fiskal va tartibga soluvchi funksiyalari o'rtasida nisbatan muvozanatni ta'minlashga xizmat qildi.

Islohotlarning uchinchi bosqichi (2009–2016-yillar) soliq tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish, soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan islohotlar bilan tavsiflanadi. Mazkur davrda soliq siyosatini izchil erkinlashtirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rag'batlantirish, investitsiya faolligini qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari yaratish amaliyoti davom ettirildi.

Xususan, uy-joy qurilishi va mavjud uy-joy fondini rekonstruksiya qilish sohasini rivojlantirish maqsadida yangi tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlariga besh yil muddatga barcha turdagi soliqlarni to'lashdan ozod etish shaklidagi soliq imtiyozlari taqdim etildi. Shuningdek, korxonalarining kapitallashuvni oshirish va investitsiya faoliyatini kengaytirishga yo'naltirilgan dividend daromadlari ham besh yil muddatga soliqqa tortilmaydigan daromadlar tarkibiga kiritildi. Mazkur chora-tadbirlar investitsion jarayonlarni faollashtirish,



korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda iqtisodiy o‘rinishni rag‘batlantirishga xizmat qildi.

Ushbu bosqichning muhim yo‘nalishlaridan biri davlat boshqaruvi tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali soliq ma‘murchiligini raqamlashtirish bilan bog‘liq bo‘ldi. Davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning elektron shakllarini rivojlantirish natijasida 2015-yilda 42,8 mingta tadbirkorlik subyekti internet tarmog‘i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro‘yxatdan o‘tdi hamda 260 turdagi interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarga ko‘rsatilayotgan elektron xizmatlar hajmida ham sezilarli o‘rinish kuzatildi. Xususan, 2013–2014-yillarda 102 mingdan ortiq xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2015-yilda ushbu ko‘rsatkich 420 mingdan oshdi. Mazkur tendensiya davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimining raqamlashtirilishi va elektron hukumat mexanizmlarining izchil rivojlantirilayotganligini ko‘rsatadi.

Natijada, soliq ma‘murchiligida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘lami kengayib, soliq organlari faoliyatining ochiqligi va samaradorligi oshdi. Bugungi kunda soliq va statistika hisobotlarini internet tarmog‘i orqali elektron shaklda taqdim etish tizimi to‘liq joriy etilgan bo‘lib, ushbu hisobotlarning 100 foizi elektron shaklda qabul qilinmoqda. Bu esa soliq ma‘murchiligini soddalashtirish, ma‘muriy xarajatlarni qisqartirish hamda soliq to‘lovchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda, 2009–2016-yillar O‘zbekiston soliq tizimini modernizatsiya qilish, uning rag‘batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish hamda soliq ma‘murchiligini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bosqichi sifatida tavsiflanadi. Mazkur davrda amalga oshirilgan islohotlar tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash va davlat xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.



Elektron xizmatlar ko'rsatishning to'liq elektron shakliga o'tishda Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Singapur, AQSh, Yaponiya va "Elektron hukumat" tizimini joriy qilish reytingida yuqori o'rinlarni egallab kelayotgan boshqa xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanilib, soliq organlarining funksional faoliyati tahlil etib borilmoqda.

Taqqoslash uchun MDH va Boltiqbo'yi davlatlari orasida vaziyat quyidagicha edi: Estoniya - 38, Latviya - 45, Litva - 51, Qozog'iston - 52-, Gruzziya - 64, Moldova - 101, Rossiya - 103, Ozarbayjon - 108, Polsha - 151, Armaniston - 153, Qirg'iziston - 156, Tojikiston - 162, O'zbekiston - 178 va Ukraina - 181-o'rin.

Islohotlarning to'rtinchi bosqichi 2017-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini tubdan isloh qilish va soliq ma'murchiligini yangi bosqichga olib chiqish davri sifatida tavsiflanadi. Mazkur bosqich mamlakat soliq tizimida chuqur institutsional o'zgarishlarning amalga oshirilishi, mavjud muammolar va tizimli kamchiliklarning tanqidiy tahlil qilinishi hamda soliq boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarning joriy etilishi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu davrda soliq tizimini takomillashtirish jarayonlari barcha yo'nalishlar bo'yicha tanqidiy qayta ko'rib chiqish tamoyili asosida amalga oshirildi. Bunda davlat organlari faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash, mansabdor shaxslarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish, shuningdek, soliq organlari faoliyatining samaradorligi va ochiqligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, iqtisodiyotda yashirin aylanmalar ulushini qisqartirish hamda barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, soliq bazasining kengayishi davlat byudjeti daromadlari barqarorligini ta'minlash hamda soliq tizimining fiskal salohiyatini oshirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi.



Mazkur bosqichning yana bir muhim xususiyati soliq ma'murchiligiga zamonaviy boshqaruv va tartibga solish mexanizmlarining keng joriy etilishi bilan bog'liq bo'ldi. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'lamining kengaytirilishi, soliq ma'murchiligi jarayonlarini raqamlashtirish, xavflarni tahlil qilish asosidagi nazorat tizimlarini rivojlantirish hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarning xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan yangi yondashuvlarini joriy etish soliq organlari faoliyatining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi.

Xulosa.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi soliq organlari tizimining shakllanish va rivojlanish jarayoni bosqichma-bosqich evolyutsion hamda institutsional transformatsiya asosida amalga oshirilganligi bilan tavsiflanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1991–1997-yillar oralig'ida mamlakatda mustaqil soliq tizimining huquqiy va tashkiliy asoslari shakllantirilib, milliy soliq siyosatini yuritish uchun zarur bo'lgan institutsional poydevor yaratildi hamda soliq organlarining yagona tizimi shakllantirildi.

1998–2008-yillar davomida soliq tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, uni bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashtirish hamda fiskal siyosatni takomillashtirish jarayonlari izchil davom ettirildi. Mazkur bosqichda soliq ma'murchiligi tizimi nisbatan barqarorlashgan bo'lsa-da, iqtisodiyotning tez o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish darajasi yetarli darajada yuqori emas edi.

2009–2016-yillar soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq yukini optimallashtirish, soliqqa tortish mexanizmlarini soddalashtirish hamda ma'muriy jarayonlarni takomillashtirish bosqichi sifatida baholanadi. Ushbu davrda soliq siyosati doirasida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, tizimning samaradorligi va fiskal barqarorligi nuqtai nazaridan ayrim institutsional va amaliy kamchiliklar saqlanib qolganligi kuzatiladi.



Shu bilan birga, 2017-yildan boshlab O‘zbekiston soliq tizimida sifat jihatidan yangi – tub institutsional islohotlar bosqichi boshlandi. Ushbu davrda soliq siyosati chuqur tanqidiy tahlil asosida qayta ko‘rib chiqildi, soliq ma‘murchiligida shaffoflik va ochiqlikni ta‘minlash, ijro intizomini kuchaytirish hamda mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq to‘lovchilar qamrovini oshirish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bo‘yicha sezilarli ijobiy tendensiyalar kuzatildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 1991–2019-yillar davomida soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish strategiyasi amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur yondashuv natijasida iqtisodiyotda soliq bosimi nisbatan yengillashdi va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay fiskal muhit shakllantirildi. Shu bilan birga, soliq yukining kamaytirilishi hisobiga adolatli, tenglik va shaffoflik tamoyillariga asoslangan soliq rejimini joriy etish, soliq intizomini mustahkamlash hamda soliq bazasini kengaytirish siyosati izchil davom ettirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston soliq tizimining evolyutsiyasi murakkab transformatsion jarayon sifatida namoyon bo‘lib, u bosqichma-bosqich takomillashib, bugungi kunda zamonaviy, raqamli va institutsional jihatdan mustahkam soliq ma‘murchiligi modelini shakllantirish yo‘lida rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent 2023 yil
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi - Toshkent 2019 yil
3. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat soliq bosh boshqarmasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida”gi Farmoni 1994 yil 18 yanvar



4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi qarori

5. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi 474-I-son Qonuni

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 12-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 14-son qarori

7. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 136-son Qonuni

8. <https://lex.uz/docs/-4674902?ONDATE=01.01.2025>

9. <https://my.soliq.uz/>

10. <https://stat.uz/uz/>